

**UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDAGI O'QUVCHILARINING
AGRESSIV XULQ-ATVORINING SABABLARI VA UNING
PSIXOKORREKSIYASI**

Mambetova Asem Maxsetovna

*Toshkent viloyati Toshkent tumani MMTB ga qarashli
1-sonli umumiy o'rta ta'lism maktabi psixolog*

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi o'quvchilarining o'rtasida agressiv xulq atvorining kuchayib boryotgani va uni oldini olishda mактаб psixologining o'rni, agressiv xulq atvor psixokorreksiyasi, o'quvchilar o'rtasida sog'lom munosabatlar, fikrlari va his tuyg'ularini adekvat o'rnatish va bir-birlariga nisbatan samimiy munosabatlarini shakllantirish haqida keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: agressiv xulq atvor, samimiy munosabatlar, qat'iyat, irodaviy sifatlar, yosh xususiyatlari, samarali harakat, individual xususiyatlari, moslashuvchanlik, teng huquqlilik, umuminsoniy qadryatlar.

Kirish Yurtimizda olib borilayotgan barcha islohotlarning maqsadi keljak uchun mustahkam poydevor qurishdan iborat. Bu poydevor sog'lom, yetuk va barkamol shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazish natijasida yaratiladi. Bola yosh davrlari inqirozi paytida qiyinchiliklarga ro'baro bo'lib, natijada uning xatti-harakatlarida agressiya elementlari kuzatilaboshlaydi. Odadga, boladagi tushkunlik, siqilish holatlariga kattalar tomonidan yetarlicha e'tibor qaratilmaydi. Aslida bunday holat bolada chuqur taassurot qoldirib, o'tishi qiyin kechadi. Yuqorida holatlardan ma'lum bo'ladiki, aksariyat hollarda boladagi agressiyaning sababi oilaviy munosabatlar sanaladi. Agar oilada ota-onada bolaga qiyinchiliklarni yengishga yordam bersa, bolani tinchlantira olsa, muloqotga mehribonlik, g'amxo'rlikni kiritsa, shu asosida unda agressivlikni yengib o'tishga imkoniyat yaratadi. Agressiv bolaning ota-onasi bilan ishslash qiyin jarayon. Sababi ularga avvalo agressiya keltirib chiqargan yoki oilada soglom muhit shakllantira olmagan, yoki bolaning stress olishi mumkin bo'lgan holatlardan himoya qila olmaganligini tushuntira bilish kerak. Shuning uchun psixolog iloji boricha ota-onalar bilan psixoterapevtik ishlarni olib borishi kerak. Agressivlikdan qutulish uchun ham ishni ota-onadan boshlash lozim. Xulq-atvorida o'zgarishlar kuzatilgan bolalar bilan ishslash jarayoni o'ziga xos tarzda amalga oshiriladi. Agressiv bolalar bilan ishslashda qo'llaniladigan usul – hozirgi kunda eng ommalashgan psixoterapevtik ishlarning guruhiy usulidir.

Asosiy qism Ta'lism muassasasidagi o'quvchilarning agressiv xulq-atvorini bartaraf etishni, ya'ni korreksiya qilishni, uning sabablarini, kelib chiqishini

aniqlashdan boshlash lozim. Agressiv xulq - shaxsning ma'naviy buzuqlikka asoslangan, boshqarishning ichki dunyosiga ochiqdan-ochiq salbiy ta'sir o'tkazib, tajovuz qilib, uni izdan chiqarishga qaratilgan g'ayriinsoniy xususiyat. Agressiv xulqning shakllanishi, kuchayishi va namoyon bo'lishi ko'pincha ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda yuz beradi. Shaxsning o'ziga qaratilgan tajovuzkorlik "autoagressiya" (bunday holat shaxsdagi patologik o'zgarishlarning ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi) deb ataladi. O'z joniga qasd qilish, o'ziga tan jarohati yetkazish autoagressiyaning ko'rinishlaridir. Jaholatga botgan, johillik va zo'ravonlikni maqsadga erishishning asosiy va ustuvor vositasi deb biladigan insonlarda agressiv xulq kuchli bo'ladi. Agressiv xulq nafaqat alohida shaxslar, balki butun-butun davlatlarga ham xos bo'lishi mumkin. Binobarin aggressor — agressiyani sodir etgan kuch yakka shaxs yoki shaxslar guruhi, siyosiy-mafkuraviy markazlar, davlat yoki bir necha davlatlar bo'lishi mumkin. Keyingi paytlarda yoshlar o'rtasida tajovuzkorlik, agressiv xulq uchrab turibdi. Sababi yoshlarimiz telefon, ijtimoiy tarmoqlar orqali turli mentalitetimizga, milliy qadriyatlarimizga xos bo'limgan videoroliklar, materiallar, voqeа hodisalarga guvoh bo'lmoqdalar. Kattalar ularning xattiharakatlarini nazorat qila olmayaptilar. O'smirlik davri olimlar tomonidan eng qiyin davr, inqiroz davri, o'tish davri deb e'tirof etiladi. Haqiqatdan bu davrga kiradigan bolalarga tarbiya-ta'lim berish ham qiyin bo'lib qoladi. Ular qaysar, o'zini boshqalar tan olishlarini xoxlaydigan, romantik bo'lib qoladilar. Shuning uchun o'smirlarni vaqtincha qo'llab-quvvatlash juda muhimdir, ammo vaqt o'tishi bilan uning fikrlari bilan yolg'iz qolishiga imkon berilishi kerak. Korreksion uslub har bir bolaga alohida yo'naltirilgan bo'lishi talab etiladi. Korreksion ishlar faqat bola bilan emas, balki parallel ravishda ota-onalar va o'qituvchilar bilan hamkorlikda olib borilishi maqsadga muvofiq. Farzandlar har doim uni yaxshi ko'rishlarini sezishi va tushunishi lozim. U ota-onasiga ke-rakligini his qilishi darkor. Bolalarda agressivlikni bartaraf qilish uchun ularga quyidagilarni bajarishni tavsiya qilinadi: -yostiq bilan kurashish; jismoniy harakatli o'yinlardan foydalanish; qog'oz yirtish; urishgisi kelayotgan odam rasmini chizish va yirtib tashlash; "hayqiriq xaltachasidan" foydalanish; psixo-gimnastika bilan shug'ullanish; ertakterapiya, izoterapiya (loy, suv bilan ishslash), artterapiya, musiqaterapiya, animalterapiya – uy hayvonlaridan foydalanish. Yuqorida mashqlarni bolaning xarakter xususiyati va vaziyatidan kelib chiqib tavsiya qilinadi. Maktab o'quvchilaridagi agressiv xulq-atvor quyidagi omillar asosida shakllanadi:

1.Nosog'lom oila muhiti. Bazi oilalardagi ota-onalar va farzandlarning o'rtasidagi munosabatlari ijobjiy psixologik iqlimda emasligi. Ota-onalar o'rtasidagi kelishmovchilik, farzandlarga bo'lgan munosabatning xar hilligi, oilaviy birdamlikning yo'qligi, otaning qattiqko'llligi, onaning haddan tashqari mexribonligi bolalarning kichkinaligidanoq agressiv xulq atvor shakllanishiga olib keladi.

2.Tengdoshlarning guruhi. Bolalar oiladan tashqari o'z tengqurlari va sinfdoshlari orasida ham agressib xulq atvorni o'zlashtiradilar. Ko'p hollarda bolalar o'z tengqurlarining agressiv hatti harakatlarini birinchilardan bo'lib o'zlashtirib oladilar. O'zlariga o'xshagan tajovuzkor do'star davrasini yaratadilar.

3.Ommaviy axborot vositalari. Bugungi kunda bolalardagi agressiv xulq atvorning eng asosiy sababchisi deb qarasak mubolag'a bo'lmaydi. Shu o'rinda turli jangari filmlar, ko'rsatuvsular, turli xil urish va o'ldirishni targ'ib qiluvchi o'yinlar hamda ko'rsatuvsular bolalardagi agressiv hatti harakatlarni rivojlantirishga turtki bo'lib xizmat qilmoqda. Maktab o'quvchilari internet orqali o'zining yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelmaydigan jangari filmlar, tajovuzkorlikni targ'ib etuvchi turli xildagi o'yinlarni o'ynash orqali o'zlarining ong osti sohasida agressiv xulq-atvorni shakllanishiga sababchi bo'lmoqdalar. Agressiv xulq-atvorli o'smirlar bilan olib boriladigan psixokorreksion ishlar: O'ziga ijobiy baho berishga o'tish, o'zining va o'zgalarning emotsiya va tuyg'ularini anglashga o'rgatish, disktruktiv emotsiyalarni nazorat qilishni yaxshilash; o'ziga va atrofdagilarga ziyon yetmaydigan gazabni tuzatish usullarga o'rgatish, muammoli vaziyatda bola xulq-atvorida konstruktiv reaktsiyalarga o'rgatish va disstruktiv vositalarni bartaraf etish; e. ota-onalar pedagoglar bilan konsultatsiyalar (bolalardagi agressiyani bo'rttiruvchi jixozni belgilashga) o'rnatish.

Xulosa qilib aytganda agressiv xulq-atvorli bola va o'smir yoshi uchun odatiy hodisa bo'lib qolgan. Bundan tashqari, agressiv xulq-atvor shaxsning ijtimoyilashish jarayonida bir qator asosiy funksiyalarni bajaradi. Me'yorga muvofiq, u qo'rquvdan qutqaradi, o'z qiziqishlarini himoya qilishga ko'maklashadi, tashqi xavfdan himoya qiladi, adaptatsiyaga ko'maklashadi. Bu borada agressiyanig ikkita turi haqida fikr yuritish mumkin: yaxshi sifatli adaptiv va destrukтив - dezadaptiv. Umuman olganda, bola va o'smir shaxsining rivojlanishi uchun agressiv namoyishlarning o'zi unchalik xavfli emas, balki ularning natijalari va atrofdagilarning noto'g'ri reaksiyasi xavflidir. Agar zo'ravonlik - e'tibor, hukmronlik, tan olish, pul, boshqa huquqlarni bersa, bolalarda va o'smirlarda kuch ustivorligiga asoslangan xulqatvor shakllanishi mumkin, bu esa katta insonlarning ham ijtimoiy faoliyat asosini tashkil etishi mumkin (masalan, kriminal guruhlarda). Atrofdagilarning agressiyani kuch bilan bosishga intilishi kutilgan natijaga emas, balki qarama-qarshi natijaga olib kelishi mumkin "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deb bejiz aytishmagan, farzand oiladagi munosabatlardan aksidir. Qachonki ota-onha o'z hatti harakat va munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'ya olsagina bolalardagi agressiv xulq-atvor yaxshi tomonga o'zgaradi. Ota-onalar bilan ishslash, ularga ezgu maqsadimizni qay tarzda yoritib berish esa psixogoning mahoratiga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.M.Xakimova. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. (o'quv qo'llanma)T. O'zbekiston respublikasi IIV Akademiyasi.2013. -143 b

2. Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi. Ma’ruzalar matni.Jizzax PI. 2013.-141 b
3. Ataeva N. va boshqalar. Umumiy Pedagogika. Darslik// -T.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2013 y.
4. Bolalarga o`smirlarga maslaxat berishda yosh psixologik yondashuv/Ed. G.V.Burmenskoy E. I.Zaxarova O.A.Karabova va boshqalar., ,Akademiya, 2012.- 112s
5. Ismoilovna, A. Z. (2022). Prerequisites for identifying gifted children and shaping their abilities. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(6), 308- 311.
6. Karakulovich, J. A., & Ismoilovna, A. Z. (2021). PSYCHOLOGICAL STUDY OF EMOTIONS AND EMOTIONS IN WORLD PSYCHOLOGY. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(10), 419-421.
7. Slovar` Psixologiya, Siyosiy adabiyot nashriyoti - Moskva, 1990 yil
8. Entsiklopediya. Umumiy va ijtimoiy psixologiya, M.I.Enikeev, PRIOR nashriyoti - Moskva, 2002.
9. Umumiy psixologiya, A.V.Petrovskiy, “O‘qituvchi nashriyoti” – Toshkent, 1975.
10. V. Noskov, Rivojlanish psixologiyasi va yosh davr psixologiyasi, Vladivostok, 2003.